

DISLALIYA HAQIDA TUSHUNCHA

Ravshanova Shaxnoza Abduqaxxorovna*ATMU. "Ijtimoiy fanlar" fakulteti Defetologiya ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich DF-137-23-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola dislaliya, uning bugungi kunda ko'p uchrashining sabablari, dislaliyaning kelib chiqishiga ko'ra shakllari, korreksiyalash va davolash haqida, nutq kamchiligi haqidagi birinchi ma'lumotlar qaysi olimlar tomonidan bayon qilingan, shu bilan birga dislaliyaning funksional va mexanik shakllarini ko'rsatib bergan, dislaliyani dezartriyadan ajratib ko'rsatilishi qaysi olimlar tomonidan bayon etilgan, dislaliya terminini yevropada birinchi bo'lib, qaysi yilda ilmiy muomalaga kiritilgani, dislaliyani korreksiyalashda inklyuziv ta'lim tiziminig ahamiyati haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: termin, tembr, mexanik, funksional, artikulyatsiya, fonemalar, sirg'aluvchi, portlovchi, arg'imchoq, kosacha, ot, g'altak, defferensiatsiya, sonor, affrikatlar, zont, shpatel.

Abstract: This article is about dyslalia, the reasons for its frequent occurrence today, forms of dyslalia according to its origin, correction and treatment, which scientists reported the first information about speech deficiency, and at the same time showed the functional and mechanical forms of dyslalia, which scientists distinguished dyslalia from dysarthria, the term dyslalia was the first in Europe and in which year it was introduced into scientific circulation, dyslalia brief information about the importance of the inclusive education system in correction.

Key words: term, timbre, mechanical, functional, articulation, phonemes, sliding, explosive, armychok, bowl, horse, coil, deferentization, sonor, affricates, umbrella, spatula.

Dislaliya — bu nutqni o'zlashtirishdagi bir qator muammolar bo'lib, ayniqsa, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilinmasligi, bolalar nutqida ba'zi tovushlarning noto'g'ri yoki yomon talaffuz qilinishi, yokida so'zlarni to'g'ri aytishdagi qiyinchiliklardir. Bunday holat bolalar o'zlarini ayblashlariga, o'zlariga bo'lgan ishonchni pasayishi hatto yo'qolishi shuningdek ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklarga duch kelishlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi siqilishlarni farzandi, yuragining bir parchasiga ravo kormaydigan onalar, otalar va shu bilan birga bola atrofida yaqinlari uning nutqiy rivojlanishida katta ahamiyat qaratishi, bola atrofida nutqiy muammosi bor kishilarni imkon darajasida korreksiyalash, ham bola nutqiga salbiy ta'sirdan saqlash, ham korreksiyalangan kishi hayotida, salomatligida ijobiy yangiliklarga sabab bo'ladi. Chunki taqlid va noto'g'ri nutqiy tarbiya va nutq apparatida mashqlarni, yani harakatni yetishmasligi oqibatida ham nutq muammolari kelib chiqadi. Artikulyatsion apparatlardan ko'proq kuchlanish talab etadigan "Sh", "Q" kabi tovushlarni talaffuz qilish dan "S", "K" tovushlarini qollashva yoki "R" tovushi o'rniga "L", "Y" kabi talaffuzi nisbatan harakat talab etmaydigan tovushlarni qo'llash nutqiy rivojlanish davridagi artikulyatsion apparatlarga bir muncha oson tuyiladi va bu biz uchun odatiy "bola tili" ga

aylanib ulgurgan tovushlarni buzib, o'rnida qollamaslikka e'tiborsizlik noto'g'ri talaffuz kamchiliklarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Kim uchundir bir harfni bilinar bilinmas buzib talaffuz etilishi ko'zga ko'rinmas muammo bo'lishi mumkin. Ammo bu Dislaliya bilan har lahza tortinib, og'rinib, ich ichidan barcha atrofidagi nutqini ravon va ta'sirli, chiroyli qilib bayon etayotganlar kabi so'zlashni orzu qilib yashayotgan, ayni damda esa, ko'p hollarda o'zini kamchilikka ega his etib, ijtimoiy muloqotdan uzoqlashayotgan, davralardan o'zini olib qochayotgan, o'zi chin dildan ular davrasida bo'lishni istasada ichki xadik, havotir tufayli o'ziga cheklovlar qo'ygan bola uchun haqiqiy azob. Chunki nutqidagi xatolar, boshqa bolalar oldida kulguga qolishiga sabab bolishi, tahqirlanishlarga uchrashi mumkinligi, boladagi asabiylik kabi salbiy xususiyatlarni kuzatilishiga ham sabab bo'lishi mumkin va bular o'z navbatida integratsiyani qiyinlashishiga sabab olib keladi. Yuqoridagi fikrlar atrofdagilar qarashi emas, bu boladagi fikrlar. Amaliyotda faoliyatimiz davomida bu kabi bolalarni ko'p uchratamiz bunday bolalar o'zlari bilan suhbatlashish u yoqda tursin, tanishishingizga ham yo'l bermaydilar. Go'yo sizga javob qaytarishni istashmayotgandek, shoshib turgandek va yoki fikrimni bo'layapsiz degandek ma'noli qarash qiladilar. Aslida esa shunaqa beg'ubor, qalbi to'la mehr va orzu umidi katta, maqsadlari ulkan. Ammo vaqtida e'tibordan bebahra qolganlari desammikan, yoki o'zlari aytganlari kabi ota onalarining bu boradagi bilimlarini yetarli bo'lmaganligi sabab 2, 4, 7, hatto 9 sinf bo'lishlariga qaramay nutqiy muammolariga nisbatan bee'tibor bo'lish, muammo masalasida mutahasis nazoratiga olib borilmaganliklari achinarli hol. Bugungi kunga kelib yurtimizda bolalar kamolati, salomatligi, ilmiy salohiyati bilan dunyoni lol qoldiradigan avlodlar yetishib chiqishida barcha chora tadbirlar qo'llanilib, keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Birgina nutqidagi kamchilik sabab, bola o'zini boshqalar oldida ifoda eta olmayotgani suhbatdoshim sezib qoladi, bu nutqiy kamchilik sabab kulgu, tazyiq ostida qolaman degan ichki hadik va havotir sabab, bolada o'ziga nisbatan cheklovlar qo'yishiga, dislaliya jiddiy havf xatar yaratmasada, uning ta'siri bolaning ijtimoiy, emotsional va akademik rivojlanishida salbiy ta'sir ko'rsatishi. Bola o'z nutqini, fikrini bayon etishida so'zlar va bog'lovchilarni joy joyida qo'llasada boshqalar oldida nutq so'zlashi, sinfdoshlari, tengdoshlari oldida gapirganda noto'g'ri talaffuz qilgan tovushlari yoki so'zlarni to'g'ri aytish imkoniyatiga ega bo'lmasliklari natijasida bolalar o'zlarini kamchiliklarga ega deb hisoblashlariga va bu esa boladagi ko'proq ichki izolyatsiyaga sabab bolishi, bilan bugungi kunda bu kabi kichik muammolarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Dislaliyani bartaraf etishda boshqa rivojlangan davlatlar qatori Ozbekistonda ham ayniqsa, bugungi kunda yoshlar ta'lim tarbiyasiga jumladan nutqiy rivojlanishiga ham e'tibor yuqori. Maktabgacha ta'lim muassasasidayoq bolalardagi nafaqat nutq, barcha kamchiliklar mutaxassislar defektologlar, nutq terapevti va logoped yordamida boladagi kamchiliklar aniqlanadi va korreksiyalash mashg'ulotlari olib boriladi. Bu esa boladagi kamchiliklarni erta tashxislab, korreksiyalash bo'lib, bolalarga o'zlarini ifoda etishi va o'ziga bo'lgan ishonchning ortishiga, har tomonlama yetuk shaxs bo'lib rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Dislaliyani bartaraf etishda inklyuziv ta'lim tizimi va maxsus pedagoglar ish olib borishlari ham yaxshi samara berishi inklyuziv ta'lim tizimini yo'lga qo'ygan davlatlar tajribasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi bilan o'z tasdiqini topdi. Bu ta'lim tizimining afzalliklariga to'xtaladigan bolsak, nafaqat mutaxassis pedagoglar, individual shug'ullanish, individual xususiyatlar inobatga olib tayyorlangan ish reja va dasturlar balki inklyuziv ta'limda o'qiyotgan bolalar bir-birlarini tushunishga va qo'llab-quvvatlashga o'rganishadi, bu esa dislaliya bilan kurashayotgan bolalarga ijtimoiy jihatdan yordam beradi.

Dislaliya :Noto'g'ri talaffuz nutq kam chiligi haqidagi birinchi ma'lumotlar qadimgi grek olimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuzni davolashni talabqiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq deb ko'rsatadilar. O'rta asrga kelib, dislaliya haqida yangi fikrlar paydo bo'lmay, qadimgi davr ilmiy g'oyalari takrorlanadi. Tarixning keyingi davrlarida (ya'ni, 16 -18 - asrlarda) italyan professori Merkurialis (1588), nemis fiziologi Albert Fon Gallerning ishlari paydo bo'ldi. Ular ham tili chuchuklikni (dislaliyani) periferik nutq apparati tuzilishidagi kamchiliklar natijasi deb qaraydilar. Merkurialis bu kamchilikni davolash usulining eng mosi deb xirurgik terapiya deb hisoblaydi. Galler esa talaffuzdagi kamchiliklarni mashqlar orqali davolash fikrini ilgari suradi. Keyinchalik bu fikr fransuz aktyori J. Talma (1764—1836) ishlarida ham o'z aksini topadi. Shunday qilib, XIX asrgacha tili chuchuklikning mohiyatini artikulyatsion organlar ishidagi mexanik buzilishlarga bog'lab o'rgan-ganlar. Chunonchi, bu davrlarda tili chuchuklik "duduqlanish" deb nomlanuvchi nutq buzilishining umumiy guruhidan ajratilmagan edi. Nutqdagi talaffuz kamchiliklarini ilmiy tasnif birinchi urinishlar XIX asrning boshlarida boshlandi. Tili chuchuklik mustaqil nutq kamchiligi qilib ajratilgandan so'ng, uning tabiatini o'rganish rivojlanib bordi. 1878-yilda Koen mexanik dislaliya bilan bir qatorda funksional dislaliyani ajratib ko'rsatdi. Uning fikricha, funksional dislaliyaning kelib chiqishining asosiy sababi, bu — taqlid va noto'g'ri nutqiy tarbiyadir. Shunday qilib, organik va funksional tili chuchuklikni bir-biridan chegaralashga urinishlar yuzaga keldi. Shu yillarda bulbar va psedobulbar falajlanish natijasida kelib chiqadigan nutq buzilishlari haqidagi ishlar paydo bo'ldi. Ular markaziy nerv tizimining ma'lum darajada zararlanishi oqibatida ham tovushlar talaffuzida kamchiliklar bo'lishini ko'rsatdilar. Bu ishlar nutq nuqsonlarini tushunish doirasini kengaytirdi va shu bilan nutqning tovush tomoni kamchiliklari haqidagi bilimlarni rivojlantirishga yordam berdi. 1879-yilda A. Kussmaulning "Rasstroystva rechi" kitobi bosilib chiqdi. Unda birinchi marta nutqning fonetik buzilishlari haqidagi fikrlar bayon etildi. A. Kussmaul tili chuchuklikni organik va funksional formalarga ajratdi. Organik buzilishlarga A. Kussmaul periferik nutq apparatining rivojlanishdagi kamchiliklarni kiritadi (mexanik dislaliya). Funksional dislaliyaga noto'g'ri nutqiy tarbiya va nutq apparatida mashqlarni, ya'ni harakatning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan nutq kamchiliklarini kiritadi. A. Kussmaul tomonidan birinchi marta ayrim tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni ifodalovchi terminlar kiritildi: rotatsizm-pararotatsizm, lambdatsizm-paralambdatsizm, sigmatizm— parasigmatizm va hokazo. Shunday qilib, A.

Kussmaulning xizmatlari shundaki, u dislaliyani dizartriyadan ajratdi va dislaliyaning funksional va mexanik shakllarini ko‘rsatib berdi. A. Kussmaul tomonidan berilgan yuqoridagi fikrlar hozirgi kunga qadar o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Bu kamchiliklarni davolashda A. Kussmaul xirurgiya va didaktik usullarni tavsiya etadi. Keyinchalik nutqning tovush tomonidagi kamchiliklar ustida Rossiyada A. Andres, Fransiyada Leguve Sherven, Germaniyada G. Gutsmanlar ishladilar. Tovush buzilishlarining xarakteri haqidagi fikrlarning rivojlanishida rus va chet el lingvistlarining, psixolog va fiziologlarning hissi katta bo‘ldi: V. A. Bogoroditsskiy (1909), L. V. Herbn (1912), D. P. Yenkov (1913), Boduen (1971), A. A. Shaxmatov (1915), L. V. Varshavskiy, I. M. Litvak (1935), N. I. Jinkin (1958) va hokazo. Tili chuchuklikning tabiatini o‘rganish, uning xarakteri va mexanizmi jihatdan alohida turlarini ajratish, bu kamchilikni bartaraf etishning differensial usullarini ishlab chiqilishiga olib keldi. XIX asr boshlarida tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni artikulyatsion mashqlar yordamida bartaraf etish rivojlandi (J. Telma 1817-y. Pualson 1892-y.).

"Dislaliya" terminini Yevropada birinchi bo‘lib Vilnyus universitetining shifokori professor I. Frank ilmiy muomalaga kiritgan. 1827-yilda chiqqan monografiyada, u bu terminni umumlashtirilgan ma‘noda talaffuz buzilishlarining hamma turlarini turli etiologiyalarini nomlashda qo‘lladi. I. Franklin farqli ravishda birmuncha tor ma‘noda, bir qancha kechroq, XIX asrning 30-yillarida shveysariya shifokori R. Shultess ham o‘z ishlariga "dislaliya" terminini kiritgan. U dislaliyaga faqat talaffuz buzilishlarini (artikulyatsion organlarining anatomik nuqsonlari sababli) kiritdi. A. Kussmaul tasnifida ham Shultessni shunday qarashlari ta‘kidlangan, shunday dislaliya tushunchasi bilan biz Gutsman ishlarida ham tanishamiz. Polyak tadqiqotchisi V. Oltushevskiy dislaliyaga talaffuz buzilishini nutq apparatini anatomik nuqsonlari bilan bog‘lanmagan hollarini kiritadi. U dislaliyaning ikkita formasini ko‘rsatgan: funksional va eshitish qobiliyatini pasayishi bilan bog‘liqlikni. Artikulyatsion apparatida patologik o‘zgarishlar sababli talaffuz nuqsonlari bo‘lishini u "dislossiya" termini bilan belgiladi va bu nuqsonni qaysi artikulyatsiya bo‘limi buzilgan bo‘lganligiga qarab to‘rtta turini ajratdi: labning, tilning, tishning, tanglayning. Keyinchalik dislaliyani funksional va mexanik dislaliyaga bo‘linishi ko‘pchilik mualliflar ishlarida ham ajratildi. Hozirgi davrda "dislaliya" termini xalqaro xarakterga ega bo‘ldi. Kishilar o‘rtasidagi muomalaning asosiy vositasi nutq hisoblanadi. Inson nutq yordamida o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini izhor qiladi, hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi. Demak, nutq faoliyati aloqa o‘rnatish vositasidir. Inson nutqi tovushlari muayyan ahamiyatga egadir. 4—5 yoshli bolalarning ko‘pchiligida tovushlar talaffuzi til normadagiga yaqinlashgan bo‘ladi. Ayrim bolalar tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Ular bir tovushni ikkinchi tovushdan farq qila olmaydilar, ayrim tovushlarni talaffuzda qo‘llay olmaydilar, yoki nutqda boshqa tovushlarga almashtiradilar. Bu holatlar dislaliya termini bilan ataluvchi nutq buzilishining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Dislaliya termini grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, dis — buzilish, laliya — nutq degan ma‘noni anglatadi. Dislaliya nutq buzilishlari orasida eng ko‘p tarqalgan kamchilikdir.

Mexanik dislaliya va uning sabablari :

Mexanik (organik) dislaliya periferik nutq apparatning (til, jag', tanglay, tish) organik buzilishi natijasidir. Til tagidagi etning (yugancha) kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab bo'ladi. Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo'lishi tilning yuqori tom- on ko'tarilishiga imkon bermaydi. Bundan tashqari, tilning haddan tashqari katta bo'lishi yoki haddan tashqari kichik va tor bo'lishi ham dislaliyaga olib keladi. Bunday hollarda to'g'ri artikulyatsiya qiyinlashadi. Jag' tuzilishidagi kamchiliklar prikus nonormalliklarga olib keladi. Nonormal prikuslar bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Prognatiya— yuqori jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi

Progeniya — pastki jag' oldinga chiqqan bo'ladi Ochiq prikus —yuqori va pastki jag'lar birlashganda ular orasida oraliq masofa qoladi. Ayrim hollarda bu oraliq faqat oldingi tishlar orasida bo'ladi (oldingi ochiq prikus) Yoni ochiq prikus o'ng tom onli, chap tom onli va ikki tom onli bo'lishi mumkin.

Tishlarning (tish qatorining) noto'g'ri tuzilishi ham dislaliyaga sabab bo'lishi mumkin. Tishlar va jag'dagi kamchiliklarni bartaraf etish shifokorstom atolog tom onidan olib boriladi.

Tanglayning noto'g'ri tuzilishi ham tovushlarning to'g'ri talaffuziga xalaqit beradi. Tor, baland yoki past, yassi tanglay ko'pchilik tovushlarning to'g'ri artikulyatsiya-siga imkon bermaydi.

Lablarining qalinligi ingichka va kam harakatchanligi ham lab va lab-tish tovushlarini aniq talaffuziga xalaqit beradi.

Funksional dislaliya va uning sabablari :

Funksional dislaliyada periferik nutq apparatining artikulyatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi. Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oiladan nutqini noto'g'ri shakllantirishdir. Ayrim oilalarda kattalar bola nutqiga taqlid qiladilar. Bolani suyb u bilan "bola tilida" so'zlashadilar. Buning natijasida bolada tovushlarning to'g'ri talaffuzi kech rivojlanadi. Dislaliya bolalarda taqlid asosida ham yuzaga kelishi mumkin. Tovushlar talaffuzi hali yetarli, to'g'ri shakllanmagan kichik yoshdagi bolalar bilan, tili chuchuk yoki noaniq, tez shoshib gapiradigan kishilar bilan doimomuloqotda bo'lishi bola nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha bola oilada tovushlarni noto'g'ri talaffuz etuvchi kishi nutqiga taqlid etadi. Bu esa funksional dislaliyaga sabab bo'ladi. Oiladagi ikki tillilik, pedagogik qarovsizlik ham funksional dislaliyaga sabab bo'ladi. Bunda tovushlarga e'tibor bermaslik, boladagi kamchiliklarni to'g'irlamaslik, to'g'ri va aniq talaffuz namunalarini bermaslik hollari ko'zda tutiladi.

Dislaliya funksional eshituvning pasayishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin. Bolaning aqliy rivojlanishidagi kamchiliklar ham og'ir va uzoq davom etadigan dislaliyaga sabab bo'ladi. Oligofren bolalarning 50% da tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar bo'lishi mumkin.

Dislaliyani bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi Talaffuz buzilishlarni bartaraf etish uchun logopedik ta'sir lozim . Logopedik ta'sirning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini

to ‘g ‘ri shakllantirishdir. Nutq tovushlarini to ‘g ‘ri tiklash uchun bola quyidagilarni bilishi lozim: nutq tovushlarini bilishi va ularni idrokida aralashtirib yuborishi kerak emas /bir tovushni ikkinchisidan akustik belgisi bo‘yicha ajrata bilishi/; normal talaffuz qilingan tovushdan noto‘g‘ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi; o ‘zi talaffuz qilgan tovushni eshitib nazorat qila olsa samarali natijaga erishadi.

Mexanik dislaliyaning bir qancha hollarida logopediya va tibbiyotning birgalikda yondashishi natijasida samarali muvaffaqiyatlarga erishiladi. Logopedik ta’sirning muvaffaqiyatli shart-sharoitlari talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshi sharoitlar yaratib beradi: logopedning bola bilan emotsional kontakti; mashg‘ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilish va charchashga yo‘l qo‘ymaydigan ish tizimida olib borish.

Logopedik mashg‘ulotlar haftasiga uch marta muntazam ravishda o‘tkaziladi. Ota-onalar bilan birgalikda uy sharoitida ham mashg‘ulotlar o‘tkazilishi lozim (logoped topshiriqlari asosida). Mashg‘ulotlarni har kuni (kuniga 2—3 marta) 5—15 minutdan o‘tkazish lozim.

Talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun didaktik materiallardan keng foydalaniladi. Talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish muddati bir qancha faktorlarga bog‘liq: nuqsonning murakkablik darajasiga, bolaning yosh va individual xususiyatiga, mashg‘ulotning muntazamligiga, ota-onalar tom onidan beriladigan yordamga. Oddiy dislaliyada mashg‘ulotlar bir oydan uch oygacha, murakkab dislaliyada esa uch oydan olti oygacha o‘tkaziladi. Maktab yoshidagi bolalarga qaraganda, bog‘cha yoshidagi bolalar talaffuzdagi nuqsonlar qisqa muddat ichida bartaraf etiladi, katta maktab yoshidagi bolalarga qaraganda esa kichik maktab yoshidagi bolalarda tezroq bartaraf etiladi. Logopedik ta’sir bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, har bir bosqichda logopedik ta’sir umumiy maqsadiga qarashli bo‘lgan aniq pedagogic masala yechiladi. Logopeddan asosan xushmuomalalilik talab qilinadi bola bilan munosabatda rasmiyatchilik, qattiq qo‘llik qilish kerak emas.

Dislaliya, asosan nutq va tilni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklardan iborat bo‘lishi va bu kabi nutq kamchiliklarining o‘rganib bugungi kunda qadar qator olim va mutaxassislarining ilmiy izlanishlari natijasida bu borada erishilgan yutuqlar, ya’ni korreksiya qilishda qo‘llanadigan chora tadbirlar, bolalarning tilni samarali o‘zlashtirishida, nutqini rivojlanishida qo‘llab quvvatlashga yordam beradi. Shuni ham aytish joizki, shular qatorida bolalarni texnologik vositalardan foydalanishini nazoratga olish, mobil telefonlar, planshetlar va boshqa elektron qurilmalarga bog‘lanib qolishi bolaning nutqiy rivojlanishida jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qo‘ymaydi. Balki bola harflarni to‘g‘ri talaffuz eta olar ammo bu salbiy ta’sir etmadi degani emas. Bolalarning ekranga muntazam tikilishi, rial ijtimoiylikka ya’ni atrofdagilar bilan muloqotni brogan sari kam bo‘lishi boladagi ijtimoiy nutq ko‘nikmalari rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada bola fikrini ifodalashda soda jummalardan foydalanish, fikr bildirishga qiynalish kabi qiyinchiliklarga uchrashi, munosabatga kirishishi kabi muammolarga uchrashi mumkin. Shu boilan birga ko‘z kasalliklari rivojlanishi ham kuzatilishi mumkin. Shu o‘rinda savol tug‘iladi bolalarni qay yo‘l bilan gajetlardan uzoq tutish mumkin? Ayniqsa bolaning otasi, onasi va atrofidagi yaqinlarining e’tiborli bo‘lishi lozim. Samimiyatga yo‘g‘rilgan suhbatlar tashkil qiling, boladan fikrini so‘rab qiziqish

bilan tinglang, bola bilan o‘yinlar o‘ynang, birga kitob o‘qing, o‘qiganlaringizni mustahkamlash, qahramonlarni tugan yo‘llari haqida fikr bildirish,” Qahramon o‘rnida men bo‘lganimda” nidavom ettirish bular boladagi fikrlash va muloqot qilish qobiliyatini shakllantiradi. So‘z boyligi oshishi, yangi so‘zlarni o‘rganishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga to‘f‘ri talaffuz va grammatikani o‘rganadi. Bolangiz bilan aktiv o‘yinlar, teatr o‘yinlari, musiqiy mashg‘ulotlar, she‘rlar yodlash, kim topqir, tez aytishni tez tez ayt, hikoya va ertaklar o‘qish, so‘zlab berish, qahramonlar, mavzularini muhokamaga qo‘yish bularning barchasi bolangiz kelajakda sog‘lom fikrlaydigan o‘z so‘ziga ega shaxs bo‘lishida muhim o‘rin tutadi. Bolalarimiz sog‘lom ulg‘ayishi, basavlat, badavlat bolishini xoxlaymiz va bu uchun bolaga sara mahsulotlar, mevalarni, shirin va tasiq taomlarni hozirlaymiz. Aql idroki yuksak bo‘larkan deb vitamanga boy ozuqalarni muhayyo etamiz, farzandimiz aqliy va ilmiy jihatdan yuksalishi uchun eng muhim bo‘lgan bola bilan birga o‘tkazishimiz lozim bo‘lgan vaqtimizni ba‘zida e‘tiborimizni “qizg‘anamiz” ming afsuski bu og‘riqli nuqtamiz. Albatta barcha ota onalar bunaqa emaslar. Shunday ekan keeling bolalarimizga yuqorida aytilganidek vaqt ajrataylik. Shunda kelajagimiz bo‘lgan farzandlarimiz xayotda o‘z o‘rnilarini topishida astoydil harakat qilgan, birinchi qadamni tashlagan bo‘lamiz. Bolaga e‘tiborli bo‘lgan oilalarning bolalari bu kabi kamchiliklarga duch kelishmaydi yoki doim bolaga e‘tiborning yuqoriligi undagi muammoni erta aniqlashga va to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatishga undash bilangina, yokida erta tashxiz natijasida mutahasislar ko‘magida korreksiyalash bilan samarali natijalarga erishiladi. Asosan bolalardagi til va nutq o‘zlashtirish davrida talaffuzda qiynalishlar kuzatilishi odatiy hol bo‘lib, to‘rt yoshdan so‘ng ham bu muammolar mavjud bo‘lsa, mutaxassisga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ham tarbiyachi pedagoglar bola nutqini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar olib boradilar va nutqiy muammolari bor bolalarning muammolarini korreksiyalash ishlari o‘rganib chiqib, mutaxassislar tomonidan lozim topilgankorreksion mashg‘ulotlar o‘tqaziladi. Logoped bolani to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish va nutqini rivojlantirishga doir turli individual mashg‘ulotlar olib borishi bilan bir qatorda, ijtimoiy muhitni to‘g‘ri tashkil etish, ya‘ni oila a‘zolari, do‘stlari, atrofidagi insonlar bilan samimiy muloqotni shakllantirish kabilarga e‘tiborli bo‘lish va ota ona uyda ham albatta bolani charchatib qo‘ymasdan ko‘rsatmalarga amal qilgan holda mashg‘ulotlar olib borishlarini tavsiya etadi. Ota onalar bunga qat’iy rioya etishlari shart. Chunki dislaliya rivojlanishiga ta‘sir qiluvchiomillardan biri bolaning emotsional holati. Bola o‘zini havotir va stressda his qilsa, bu uning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir etadi. Bu esa natijaga erishishni ortga surilishiga olib keladi. Shuning uchun bolaga havfsiz va qo‘llab quvvatlovchi muhit yaratish, unga o‘zini ifoda etishiga imkon berishimiz shart.

Xulosa qilib aytganda, dislaliya bolalarning nutqida ko‘plab qiyinchiliklarga shu bilan birga asta sekinlik bilan boladagi tortinchoqlik, ijtimoiy muhit, muloqoddan qochish, fikrini bayon etishda nutqidagi muammo tufayli uni tinglayotganlar oldida havotir va hadikbilan so‘zlashi natijasida o‘zini yaqqol ifoda eta olmasligiga olib keladi. Dislaliya nutq buzilishlarining orasida eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra ikki mexanik vafunksionaldislaliyaga bolinadi. Mexanik dislaliya aksariyat hollarda nafaqat logoped

tibbiy yordamga ham ehtiyojli bo'lsa, funksional dislaliya asosan boladagi nutqiy rivojlanishga e'tiborsizlik, pedagogic qarovsizlik, oilada bolaga erkatib "bola tilida" muomala qilishdan yuzaga keladi. Asosiysi har ikkalasida ham e'tiborli bo'lisherta tashxiz vakcerakli mashg'ulotlar (muolajalar) yordamida korreksiyalash, samarali natijaga erishish mumkin. Dislaliyani oldini olish uchun bolalarga ijtimoiy va nutqiy rivojlanishi, o'z fikrini mustaqil va ravon so'zlay olishi uchun imkoniyatlar yaratish ya'ni gajetlardan foydalanishlarini nazoratga olish, ko'proq bolalarimiz bilan dildan suhbatlashish, birga o'yinlar o'ynash, kuylash va shu asnoda boladagi nutq muammolariga e'tibor berib, ularni to'g'ri talaffuzga o'rgatish orqali bola nutqini rivojlantirishda qo'llab quvvatlash hisoblanadi va bu bilan biz dislaliyani rivojlanishini oldini olamiz yoki erta tashxizga erishamiz. Bular esa o'z navbatida boladagi o'ziga bo'lgan ishonchni ortishiga, nutq va tilni to'g'ri o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'lim tizimi esa bolalarning o'zini tengligini his qilishini, do'stona muhitda qo'llab quvvatlanish va rag'batlar natijasida o'z salohiyatini amalga oshirishini va jamiyatda to'liq integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Y.Ayupova "Logopediya" Toshkent-2007
2. Ya. Mo'minova, M. Qahramonova. " Logopediya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. T."O'qituvchi" 1988.
3. L. Mo'minova , M.Ayupova " Logopediya" –T-1993
4. Shomurodova va boshqalar. "Maxsus va Inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma, Toshkent 2011 yil.
5. Hamidova M. "Maxsus pedagogika" Toshkent 2021 yil.
6. Mo'minova va boshqalar. "Inklyuziv ta'lim" o'quv qo'llanma Toshkent 2019 yil.